

BAHODIR QOBUL NASRIDA POETIK NUTQ VOSITALARI

Boboxonova Durdona Ermamat qizi,

ToshDO 'TAU Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

mutaxassisligi 2- kurs magistranti

E-mail: redmidurdona@gmail.com

Tel: +998 93 519 75 87

Ilmiy rahbar: B. Karimov f.f.d., prof.

Annotatsiya. Mazkur maqolada biz badiiy til va milliy til masalasiga, milliy til unsurlarining asar qahramonlari va muallif nutqida badiiy sayqallanib ijodkor mahoratining ochilishida ustuvor ekanligi, aforizmlar badiiyatiga to'xtalmoqchimiz. Obyekt sifatida olingan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi Bahodir Qobul ijodidan iqtiboslar keltiramiz.

Kalit so'zlar: badiiy til, milliy til, adabiy til, leksik va fonetik takror, alliteratsiya, humor, dialektizmlar, aforizm, saj', ismlarning tanlanishi, joy nomlari, tarixiy voqeа va shaxslarning asarda qo'llanishi

Annotation. In this article, we want to dwell on the issue of the artistic language and the national language, the importance of the elements of the national language in the opening of the artist's skill in the characters of the work and the author's speech, and the art of aphorisms. We quote from the work of writer Bahadir Qabul, a member of the Writers' Union of Uzbekistan, taken as an object.

Key words: artistic language, national language, literary language, lexical and phonetic repetition, alliteration, humor, dialectisms, aphorism, saj', choice of names, place names, use of historical events and persons in the work.

Maqola ustida ishslash jarayonida "badiiy til", "adabiy til" va "milliy til" munosabati masalasiga ham e'tibor berishimiz lozim. Ma'lumki, umumxalq tili (milliy til) deganda, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi – yashash hududi, ijtimoiy tabaqaga mansubligi, mashg'ulot turi kabilardan qat'iy nazar foydalanadigan til tushuniladi. Adabiy til deganda esa, umumxalq tilining imloviy va orfoepik, grammatik jihatlardan me'yorashtirilgan shaklini tushunamiz. Adabiyotshunoslikka oid nazariy kitoblarda yana badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi va qisman adabiy til me'yorlariga yaqinlashadi, deyiladi. Shu bilan birga, badiiy til adabiy til me'yorlaridan o'rni bilan chekinadi (mas., shevaga xos unsurlarning ishlatilishi). Badiiy til o'zida milliy adabiyotimizda uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan an'analarning davomchisi sanalishi va shu bois ham unda uning o'zigagina xos bo'lgan unsurlar (an'anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o'xshatishlar va h.) majmui ham mavjudligi ta'kidlanadi.

B. Qobul ijodining o'ziga xosligi, ayrichaligi asarlari tilida yaqqol bo'y

ko'rsatishini yuqorida ham ta'kidlagan edik. Ijodkorning o'z asarida milliy koloritni, milliy o'ziga xoslikni berishida sheva unsurlari, o'sha hududga xos xarakter chizgilari muhim ahamiyatga ega. "Badiiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining individualligi ko'p jihatdan o'rinali va me'yorida qo'llangan sheva unsurlariga bog'liq"¹, deb M. Yo'ldoshev ta'kidlasa, bu to'g'rida A.Shomaqsudov va boshqalar muallifligidagi "O'zbek tili stilistikasi" kitobida quyidagicha xulosaga guvoh bo'lamiz: "Yozuvchi o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning mahalliy belgisini bildirsagina, dialektal so'zlardan foydalanishi mumkin"².

Dialektizmlarning badiiy asar tilida qo'llanishi ularning ma'nodagi farqlariga, uslubiy qiymatiga, qahramonlar nutqini individuallashtirishga va adabiy tilda tutgan o'rniga ham bog'liq.

O'zbek adabiyotida badiiy asari tilida dialektizmlarga katta o'rin bergan va shu orqali o'z ijodiy individualligiga ega ijodkorlar bir qancha bo'lib, ulardan biri – Bahodir Qobul asarlarida dialektizmlar shunchaki va faqat hududiy o'ziga xoslikni bo'rtiq ko'rsatishga xizmat qilmasdan, balki ijodkor bundan kitobxonga o'z tilini, chatishmagan sof leksikasini ko'rsatishga harakat qilgan, desak xato bo'lmaydi. Izlanishlarimiz davomida shunga amin bo'ldikki, badiiy asar tili va ijodkor uslubini aniqlashda faqat adabiyotshunoslik yoki tilshunoslik aspektidan keta olmas ekansiz, bu ikkisi ayni tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'rtasidagi, ikkisining ham birdek obyekti, "non"i ekan. Tilshunoslik jihatdan ikkisini shakllantiruvchi vositalar sifatida fonetik, leksik, grammatik, morfologik, sintaktik vositalar tasniflansa, adabiyotshunoslikda shu vositalarga suyanib, ularning o'z zimmasiga olgan badiiy yuki, ijodkorning so'zga mas'uliyati, portret va peyzaj yaratish mahorati, kompozitsiya va syujetdagi "priyom"lari ham tadqiq etiladi. Biz ham obyektimiz bo'lgan B. Qobul asarlarini shu asoslarga tayanib tahlil qilmoqdamiz.

Adib asarlarida dialektizmlarga o'zgacha e'tibor beriladi. Xususan, "Tanovor" hikoyasida ug'ruq, jut, ko'milduruq – ko'ksi, ko'kragi, o'stam – to'qay-u egar, chong'i – ot, do'lta – katta, mohir, o'rgamchi – o'rganayotgan kabi so'zlarga duch kelsak; "Enashamol" qissasida cho'g'alchilik – tilyog'lamalik, turamo – ko'z fasli, orqasi qo'zimoq – jahli chiqmoq, paxta chuvish – paxtani chigitdan ajratish, xelvagay – keng, kulata-kultuvshak – yoshi ulug'momolar taqadigan katta ro'mol, kelagay-gelagay – og'iz suti, hishmoq- shishmoq hamda xanjala, bo'yinsa, kenamoq, oshkadi, himo, sharrak hamda boshqa asarlarida shillak, tovun, hishratovlamoq, erganak, isliqqan, angnimagan, tit-piton, goy-goyda, ko'klamoq, qashqatayoq, ko'taram, ayna, galdiramoq, qiyri, chang'aloq, etim singari yana ko'plab so'zlar ham borki, ularni o'qiy

¹ Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. – T.: Ma'naviyat, 2002. –29 b.

² Shomaqsudov A. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983. – 57 b.

turib “tilimiz chiqqan”, kunda so‘zlashadigan TILIMIZNI u qadar bilmasligimiz, yuqoridagidek so‘zlariga tushunmay ham qolishimizni anglaymiz. Shunda ijodkor asarlari haqida turli o‘ylarni o‘ylaymiz, savollar beramiz...

Nega ijodkor hammamizga ma’lum bo‘lgan, adabiy tilga yaqin so‘zlarni

qo‘llamaydi? Nimaga biz bir o‘qishdayoq tushunadigan so‘zlar, gaplar qolib “ko‘na” (ko‘hna – B.D.), “notanish”, to‘g‘rirog‘i, unutilayotgan kalomlarni qo‘llaydi? Bunda ijodiy individuallik, badiiy mahorat, milliy koloritni ko‘rsatishdan bo‘lak yana qandaydir maqsad bormikin?

Ijodkorning o‘zi unga berilishi mumkin bo‘lgan savol-so‘roqlarni anglagandek, bunday deydi: “So‘zlarning joni bor. Xushvaqt so‘z, xafa so‘z, quvg‘in, sig‘indi, quv, iliq, sovuq, begona, tanish, qadrdon, har kunlik, yoqimsiz... Xuddi odamlardek. Odamlarning esidan chiqqan so‘zlar eng xafasi emish. Esdan chiqqan, chiqay-chiqay degan so‘zlarni ishlatsangiz, bir odamning otini aytib chaqirganda qayrilib qaraganday ko‘zi chaqnab ketadi. Kerak ekanman, deganday. Maniyam eslarim bor ekan, deb. Odam o‘lib ketishi aniq, ammo so‘z, jondan chiqqan, jonga qo‘ngan so‘zlar o‘lmasmish”³.

Demak, ijodkorning yuqoridagi so‘roqda kelgan uch maqsaddan boshqa yana bir oliy maqsadi bolib, u ham bo‘lsa, SO‘Zning, KALOMning yashuvchanligi, umrining uzayishi, qayta so‘zlashuvga kirishi yoki batamom chiqib ketishining oldini olish ekan.

Ijodkorning shu maqsadini to‘g‘ri anglagan va navbatdagi ishiga manba qilgan tadqiqotchi Mohinur Anvarova B. Qobul asarlarida qo‘llangan sheva so‘zlarning elektron lug‘atini tuzib chiqmoqda. Tadqiqotchi shu masala to‘g‘risida “Til umrboqiy va o‘lmas bo‘lishi uchun, eng avvalo, u o‘zligini yo‘qotmasligi kerak. Chetdan kirib kelayotgan so‘zlar chetniki, zarurat atalmish holat hech vaqt bu so‘zlardan voz kechishimizga yo‘l qo‘ymaydi. Sheva esa o‘zimizniki. Shunday ekan o‘z so‘zimizni aytaylik, rango-rang va qiziqarli, uzoq tarixga ega so‘zimizni aytishdan uyalmaylik. Zero, Bahodir Qobul kabi rostini so‘zlaylik, u kabi yolg‘on aytolmaylik”, - deya xulosa yasaydi⁴.

E’tiborli tomoni shundaki, ijodkor asarlarida xalq donishmandligining, ijodkor badiiy mahoratining namunasi bo‘lgan hikmatli so‘zlar, maqol, matal, idioma (boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo‘lmaydigan nutq birligi yoki ibora) kabi maxsus vositalardan foydalanadiki, bu ijtimoiy muhit ruhiyatini aks ettirishda, badiiy asar g‘oya va maqsadini, personajlar ichki dunyosini ochishda, nutqqa ta’sirchanlik va ifodalilik baxsh etishda muhim ekspressiv ahamiyatga ega. So‘zimiz isboti uchun adibning “Enayo‘l” qissasiga murojaat qilamiz. Qissada onasining tuqqani ham, turgani ham shu bitta o‘g‘il bo‘lgan, urushga ketayotgan tengqurlaridan ajrab, yoshini kichik qilib berishi va o‘rniga bir yolg‘iz onaning hali norasida sag‘iri jo‘natilishi uchun bir sigirni ataganiga olib borgan va urushdan qolgan, uch bora oila qurban ayolga (o‘zidan o‘n ikki

³ B. Qobul “Otachiroq” (“Otamozor” hikoyasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2021. – 314 b.

⁴ M. Anvarova, J. Jabbarov “Bahodir Qobulning “Ena shamol” qissasi asosida sheva izohli lug‘atini yaratish dasturi”, 2023.

yosh katta) uylanib, keyinchalik yolg‘iz qizidan ham rushnolik ko‘rmay, umri oxirida yolg‘iz qolib o‘zining ta’biri bilan aytganda mana bunday holatga tushgan – “Yutarga qattiq nonim yo‘q. Qachon kech tushsa, qo‘snilardan biri yarim kosa yovg‘on berarmikin, deb o‘g‘ri pishakday yo‘l poyleyman, saharni bugun kim ma’raka qilarkin, deb kutaman. Odam ham shunday sharmanda bo‘ladimi?”⁵ – Davlatmurod taqdiri tasvirida bir o‘rin borki, dunyoning, taqdirning, peshonamizga yozilgan yoziqning naqadar chegal, favqulodda ekaniga amin bo‘lamiz. Davlatmurod uylangan ayol – Sanam satang (satang nomi unga uch er ko‘rib ham tinmagani uchun berilgan – B.D.) unga turmushga chiqqach, avvalgi ishlarini tashlab, ro‘zg‘orini mahkam ushladi. “Sanam ham yoshini yashadi. Satang oti Sanam otin bo‘ldi. Obro‘ topdi. Xotin-xalaj o‘takazadigan mavludlarga bosh bo‘ldi. Izzat bilan ko‘z yumdi. *“Dunyo – bilgich emas, buzguch ekan”*, - joni chiqarda aytar so‘zi shu bo‘ldi. *Beraman desa ham, olaman desa ham bir nafaslik ekan. Bir puf ekan*”, ⁶- deya Davlatmurod taqdiriga ko‘ndi. Qahramonlar holatini, sa’jiyasini ochishda muallif qo‘llagan ushbu hikmatli so‘zlar, albatta, o‘quvchini ham ta’sirlantirmay qolmaydi. Adib asarlarida adabiy aforizmlar ham borki, ularda muallifning ijodiy individualligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Avvalosi, aforizmlar haqida: “Aforizmning paydo bo‘lishi, ilk namunalari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mil. avv. IV asrda bu terminni tibbiyat ilmining asoschisi Gippokrat turli kasallikkarning belgi va alomatlari haqidagi xulosa va hukmlarni chuqur mazmunli, ixcham shaklda ifodalash uchun qo‘llagan. Keyinchalik aforizm tibbiyat sohasidan chiqib, odamlarning hayot, inson, uning faoliyati haqidagi dono, ibratli fikrlariga nisbatan qo‘llana boshlangan”⁷. Aforizmlarni janr sifatida qabul qilish adabiyotshunoslikda V.G.Belinskiy nomi bilan bog‘liq. O‘zbek adabiyotshunosligida B. Sarimsoqov maqol, matal, topishmoq, iboralar, xokkular, paradoks, epigramma, gnomalar qatorida aforizmlarni boshqa bir adabiy tur – paremiyaga kiritgan.

Aforizmlar xususiyatiga ko‘ra ikki turga ajratiladi:

- Og‘zaki aforizmlar – xalqning, ommaning, ko‘pchilikning u yoki bu hodisa haqidagi xulosasini qat’iy hukm tarzida ifodalaydi;
- Yozma adabiy aforizmlar esa muayyan shaxs, narsa, hodisalar to‘g‘risida alohida ijodkorning fikrlarini anglatadi⁸.

B. Qobul asarlarida biz aforizmlarning har ikkala turini ham ko‘rishimiz mumkin. Og‘zaki aforizmlar, odatda, Enaning; adabiy aforizmlar esa, aksari, Mardon, Sariqbola hamda qissa va hikoyalardagi boshqa qahramonlar nutqida uchraydi. Muallif nutqi ham borki, unda har ikkala aforizm turi ham faol qo‘llanadi. Mana bu purhikmat jumлага e’tiboringizni tortamiz: “*Umr ham o‘zi ikki ko‘zingga yozilgan aslida. Oynasiga yo*

⁵ B. Qobul “Enayo‘l” (“Enayo‘l” qissasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2018. – 45 b.

⁶ B. Qobul “Enayo‘l” (“Enayo‘l” qissasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2018. – 39 b.

⁷ Toshpo‘latov Z.D. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. – Toshkent. 2006. – 3 b.

⁸ Toshpo‘latov Z.D. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. – Toshkent. 2006. – 19 b.

*bulog ‘iga. Oynasiga tishing o‘tsa oynasiga, bulog ‘ini o‘qiy olsang bulog ‘iga qara’.*⁹ “Enabuloq” hikoyasida Mardon tilidan berilgan bu adabiy aforizm xalqning “Kengga keng, torga tor dunyo” maqoli mazmunining shu yo‘sinda berilgan shakliga o‘xshaydi. Navbatdagisi yana-da o‘ylantiradi: “*Toshni bosib turgan ham yaxshi, tosh ustingga chiqqandan keyinini qo‘yaver*”¹⁰. Bundoq qaraganda oddiy jumla, ammo so‘zlarga yuklatilgan ma’no, o‘quvchiga yetkazilmoxchi bo‘lgan maqsad naqadar teran, sodda va ravon. Sariq bola tilidan berilgan, aytishicha, o‘zi o‘ylab topgan “*Joni bor elning jonli tilida yozaman*”, - degan gapi ma’nosи ham zalvorligina.

Og‘zaki aforizlar yuqorida ta’kidlangandek, asosan, Ena tilidan beriladi: “*Qo‘y oqsoqi bilan yuz, el o‘zini o‘g‘risi bilan el*”, “*Yaxshiga yurim, yomonga o‘lim yo‘q*”, “*Hut kirdi, joni borga qurt kirdi*”, “*Ena jamni bilish farz, ota jamni bilish qarz*”, “*Tig‘ bilan o‘ynashsayam, til bilan o‘ynashmaydilar*”, “*Yer chizgan do‘stdan ko‘zga qaragan dushman yaxshi*”, “*Qirqida er bo‘l maganning qiytuvidan qirqilgani yaxshi*”, “*Kunga matal, kuniga mahtal odamlarmiz*”... yozuvchi asarlarida shu va yana boshqa ko‘plab maqol-u Enaga tegishli hikmatli so‘zlarni uchratishimiz mumkin.

Kitobni o‘quvchi asarlar zamiriga singdirib yuborilgan ma’no qatlamlarini ochib boraveradi, qayta-qayta Enaning yurtga, so‘ziga EGA Enaligini anglab, his qilib boradi.

Adabiy aforizmlar muallif nutqi orqali ham beriladi, bundan esa B. Qobul asarlarida ham personajlar nutqi, ham muallif nutqi o‘rinli va salmoqli degan xulosaga kelish mumkin. E’tibor bering-a, “*O‘yinni zo‘ri yo bozorda, yo mozorda bo‘ladi*”, “*Tig‘ ning yozig‘i o‘chib ketarmish, tilning yozig‘i o‘chmas mish*”...

Insonda ko‘plab, turfa xislatlar bir vaqtida mujassam bo‘lsagina u yozuvchi bo‘la oladi. Qaysiki iste’dod, bilim, mehnatsevarlik, qalb, ruh pokligi, inja tuyg‘ular his qilinishi va tasvir etilishi, qat’iyat, kurashuvchanlik...

Shu kabi xislatlar jam bo‘lgan adib ijodi, asarlarining shirali tili bizni qayta-qayta poetik nutq masalasida ularga murojaat qilishga undab, bizni yana-da

chuqurroq izlanishlar olib borishimizga ruhlantiradi.

B. Qobulning so‘z qo‘llash mahorati asarlarida sa’jdan unumli foydalanishida ham ko‘rinadi: “...kiydim endi dunyo meniki deydigan shapkalimi, atoldan urGANIMI, zarga uchiqqanimi, chorig‘ini unutganimi, itning keyingi oyog‘imi, mozor ushlaganimi... kim bo‘lishidan farqi yo‘q, nafasi na kirarini, na chiqarini bilmay qoladi”, “... daraxt shoxida sovuq zahridan panalabgina, uvishibgina, mung‘ayibgina turgan”, “Mardonning aytishicha, haromni daryosi toshgan, otdan eshak o‘zgan, paytova sallalikka o‘tgan, qaro bosgan, Xudo qisgan, qarg‘ish urgan kunlar”, “Enamning yarmi ertak, yarmi matal, yarmi toshoyna, yarmi muzoyna, bir chekkasi tuzoyna gaplari davom etadi”. Sa’j muallif asarlarida ritmik funksiya bajaradi, nasriy asarda ohangdoshlikni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, B. Qobul asarlarida takrorlar ham borki, bu ham muhit, holat,

⁹ B. Qobul “Enayo‘l” (“Enabuloq” hikoyasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2018. – 294 b.

¹⁰ B. Qobul “Enayo‘l” (“Enabuloq” hikoyasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2018. – 307 b.

qahramon, muallif emotsional-ekspressiv holatini ochishga xizmat qiladi. Takroriy so‘zlar, jumlalar va hattoki xatboshilar, odatda, ma’no kuchaytirish, uslubiy bo‘yoqdorlikni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bunga qo‘srimcha qilib shuni aytish mumkinki, bu xususiyatlardan tashqari takrorlar ritmik ohangdorlikni ham yuzaga chiqaradi. Yuqorida sanalgan unsurlardan foydalanish muallifga asarning estetik ta’sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalarini tanlash, ulardan mohirlik bilan foydalanish, yangi-yangi ifoda vositalarini yaratishda qo‘l keladi.

Bob nomiga aynan aloqador bir tushuncha ham borki, uni ham ta’kidlab o’tish lozim. U ham bo‘lsa asarga sarlavha tanlash. M. Feller sarlavha muallif tomonidan shunchaki, tasodifiy tanlanmaydi, uni vaziyat, maqsad, sharoit, hissiyot yo mushohadaga yo‘nalgan fikrlash doirasi taqozo etadi, deydi¹¹. B. Qobul ham sarlavha orqali asarda yoritilayotgan mavzu, g‘oya, kitobxonga aytmoqchi bo‘lgan gaplaridan bir ulush beradi, ilmoq tashlaydi. Asar nomini o‘qib asarga qiziqish yo kuchayadi, yo susayadi, yo ichki e’tiroz tug‘iladiki, asar o‘qib tugatilgach, xulosani qo‘yish o‘qiganda, uqqanda qoladi. Zero, birinchi satr – birinchi taassurot. Demak, sarlavha yozuvchi bilan o‘quvchining ilk uchrashuvi, tanishuvi, ba’zan to‘qnashuvi, desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Asarlari nomlarini avvalgi bobda ko‘rib chiqqanimiz sabab qayta to‘xtalmadik. Ammo to‘xtalish zarur bo‘lgan masalalar bisyor.

Ijodiy individuallikning yana bir muhim tomoni bu asar qahramonlarining, personajlarning nomlanishi va bu turli asoslarga ega. Ular muallif hayoti, ruhiyati bilan bog‘liq; tarixiy-madaniy, majoziy bo‘lishi mumkin. Ammo shunisi aniqki, muallif ism tanlayotganda duch kelgan, ixtiyoriy nomlarni qo‘llamaydi, shu birgina nom bilan ham aytar so‘zi borligni ko‘rsatadi. A. Qahhorning “Asardagi har bir nom ortida tirik odam turadi. Rostki, kitobga bir odamni kiritdingmi, unga jon ato qilishing kerak. Yozuvchilikning eng qiyin joyi shunda. Ko‘p yozuvchilarimiz shundan oqsashadi. “Kitob”da qahramon bor, qiladigan ishining tayini yo‘q. Oti bor-u, o‘zi yo‘q, taqdiri yo‘q”¹², - deya bildirgan fikrlari ayni haqiqat. B.Qobulning asarlariga nazar tashlasak, (avval aytganimizdek qahramonlar asardan asarga ko‘chib yuradi) qahramonlar bir qanchagina, xolos. Asardan asarga ko‘chganlarida ham o‘z ruhiyatları, aytar so‘zlari, doimgi amallari bilan ko‘chadi. Bu xuddi bir qahramonning (lar) turli yillarda, turli odamlar bilan bo‘lgan xotiralarini o‘qishdek taassurot uyg‘otadi.

Bu o‘rinda Mardon ismi va bu ismnинг asar qahramoniga qanchalik “o‘tirishgan”и haqida so‘z yuritamiz. Ismnинг ma’nosini qidirsak, Mardon ismining “botir, dovyurak, qaytmas, erkaklarning eng jasuri” kabi ma’nolarni anglatishini bilib olamiz. Bu ma’nolar orasida asar qahramonining xarakterini ochib bergen so‘z “qaytmas”dir. Asarlarni mutolaa qilgan o‘quvchi, e’tibor bergen kuzatuvchi gapi kelsa, otasini ham ayamaydigan, aytishdan qaytmaydigan” qaytmas insonning obrazi.

¹¹ Феллер М. Структура произведения. – М.: Книга. 1981. – С.169.

¹² Qahhor A. Adabiyot – ruhiyat mulki. T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 3 b.

Bahodir Qobul tarixiy haqiqatlarni badiiylikka yashirib asarlariga singdirib yuboradi. Bunday deyishimizga sabab “Otachiroq” qissasidagi mana bunga o‘xshagan parchalardir: “...Venetsiyaga avvaliga varab chaqirilgan va sakkiz yillik tutqunlikda ushlanib, aytganidan qaytmagan, keyin Rimning Gullar maydonida yoqilgan gulxan ustiga tikilgan bandini, “...aftidan hukmni men eshitishimdan ko‘ra siz ko‘proq qo‘rquvda e’lon qildingiz” degan bandini ikki yamlab bir yutgan olov shamolga aylanib yer yuzini kezib chiqqan”. Bu yerda gap Jardano Bruno haqida ketmoqda. Dunyoviy bilim, tajribalarni ilgari surgani, maslagidan qaytmagani sabab o‘tda yoqilgan, asarning boshqa o‘rnida umrini uzaytirish uchun uch navqiron yigitning qonini olib o‘ziga quydirgan va tabiblar ko‘z oldida jon bergan Rim papasi Innokentiyl V IIIning inkvizitsiyasi, o‘sha davr jaholati qurboni bo‘lgan hurfikr inson nomi asarda ochiq keltirilmagan, topishmoq qilib qoldirilgan. Asarga kirgazishdan maqsad esa jaholatning ma’rifat ustidan hukmronlik qilgani ko‘rsatishdir. Shu maqsadda yana bir “topishmoq obraz” keltiriladi: “Ulug‘ Ko‘ngil suyungan, tuyungan, to‘yingan bo‘ldi. G‘ov hatlarda ota ovosiga uchradi. Otalikning abadiyat oralab belgi berayotgani ko‘nglini tog‘dek qildi. Oydagi “Bo‘ronlar ummoni” atog‘lik o‘rindagi o‘z otiga qo‘yilgan mavoga qaragancha, quloq osdi”. Anglaganimizdek, bu qirq yil adolat bilan yurt surgan, 1018 ta yulduzlarni turli tomonlardan o‘rgangan, ilmiy asarlar yozgan Ulug‘bek Mirzodir. Ayni shu asarda yana bir qancha tarixiy voqeа, shaxlarga duch kelamiz. Muallif tarixni yozish bilan o‘tmishimizni bizga ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, nazarimizda.

Bu maqolada adib asarlari poetik sintaksisi ham tadqiq etilishi maqsadga muvofiq. Sintaksis til qurilishini bildiradi. Poetik sintaksis esa badiiy asar tili qurilishini anglatadi. Uning kuchaytiruvchi, pasaytiruvchi, o‘zgartiruvchi figuralaridan iboratligi adabiyotshunoslikda o‘rganilgan¹³. Adib asarlarida qo‘llangan poetik sintaksisning leksik takror (anafora), poetik fonetika (alliteratsiya) kabi qismlari qahramonlar ruhiyati, kayfiyati, his-tuyg‘ularini ta’sirchan ifodalashga xizmat qilib kelgan. B. Qobul asarlariga nisbatan “nasrdagi nazm” tashbehi behuda qo‘llangan emas, muallif asarlarida she’riyatga xos badiiy tasvir vositalari ham uchraydiki, bu ham ijodkor badiiy mahorati, ijodiy erkinligidan dalolat beradi. Xususan, adib asarlarida bir necha o‘rinda alliteratsiyaga duch kelamiz. Alliteratsiya fonetik takrorning bir ko‘rinishi bo‘lib, undosh tovushlar takroriga asoslanadi. “...izlari izillab izingizdin”, “...jizillabgina, jiltillabgina, jirtillabgina”, “Yag‘rinigacha yag‘irlashgan, qo‘ymichigacha qo‘tirlashgan, biroq uzayib uzilmagan umr ustomonligiga ishonib..”, “Zulm zahri, qahr qahratoni”, “O‘lmagan xayol bir kun alanga, alamga, alam yalovga, yalov tug‘ga aylanarmish”, “Qul qutursa, quduqqa tupiradi. Qulzodaga kun ko‘psa, quduqqa qulf qo‘ndirarmish” kabi misollar yuqoridagi gapga oydinlik kiritadi.

Quyidagi misollarda takrorga, adibning so‘zlarni raqqosalardek o‘ynata olganiga guvoh bo‘lamiz: “Yo‘l boshiga qaytishdan qo‘rqan, o‘zini qo‘lga ololmagan, ikkio‘y,

¹³ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 422 b.

beega, beso'rov, besurov itman, jo'ra", "Xotir maylicha, xotir istagicha, xotir iznicha, xotir xohishicha og'zini yumdi", "Otachiroq ostida ko'rilgan tushlarning beg'ubor, begidir, beso'rov, beg'alva, betashvish, beqiyos, bebafo, behisob ekanligini endi ilg'aydi".

Bahodir Qobul asarlarida tag ma'no, qochirim, yumorga alohida e'tibor beradi. Asarlarida kulgiga moyil o'rinalar borki, ular yuzimizga samimiyl tabassum yogurtiradi. Masalan, "O'spirinlik" qissasida "Ena, bularga ham shamol bilan gaplashishni, yer bilan suhbat qurishni, suvga salom berishni o'rgatasiz... Olashaqshaqlarni qarg'ashni ham o'rgating! Samarqandni olashaqshaq bosib ketdi. Keyin xotiniga bir qarab, "atrofniyam" deb qo'shib qo'ydi", - degan parchani olishimiz mumkin. Naqadar sof, samimiyl oilaviy xazil. Shu qissaning boshqa o'rnida Mardonning qiziq gapi bor: "Jarko'chani changitib Mardon o'tdi. Qopqora jar mushugini bo'ynidan bog'lab eshagiga ortib olgan. Undan qishloq oqsoqollari so'raydilar:

–Mardonboy, mushukni nega boshidan bog'lab oldingiz?

–Dumidan bog'lashning iloji yo'q!"

"Otahayot" qissasidan olingan mana bu parchada qahramonlarning kundalik hayotdan uzilib qolmaganiga guvoh bo'lamiz:

–"Dadajon, nimaga Braziliya o'yinchilarini yugurishidan, to'p tepishidan darrov bilib olsa bo'ladi?

–Qanday qilib?

–Darvozachisi tepsayam yo Neymarga, yo boshqa o'zining

kamandasinikiga to'g'ri kelib tushadi, bizanikilar temsa, narigi kamandaga tushadi yo autga chiqib ketadi. Tepishdan oldin qayerga tepishiga yo to'g'ri qaramaydimi?"

Tadqiqotimiz davomida shunga amin bo'ldikki, B. Qobul asarlari lug'atga o'xshaydi, yuqorida aytilgandek faqat sheva lug'ati emas, termin, so'zlarning, iboralarning ham izohli lug'atiga o'xshaydi. Adib turli soha, jabhalardagi til birliliklarining izohini berib ketadi. Shunday o'rnlarda Bahodir Qobulning yaxshi bir yozuvchiligi bilan birga haqiqiy mutaxassis – filolog ekaniga ham ishonch hosil qilamiz. Fikrimizni dalillash maqsadida turli asarlaridan olingan so'z va iboralarning izohini berib o'tamiz: "Xanjala – yigirishga tayyorlangan, ungacha qayta-qayta yuvilib, titilgan va bir-biriga ulanib, uzun arqon holatga kelgandan keyin ochilib bo'lochkaga o'xshatib bilakka moslab o'ralgan, o'rtasi bilaguzukdek teshik taxlangan yung bo'lagi", "qo'yindi – qabriston", "ape", "apa", "aba" deb qadimiy turkiy xalqlarda hosildorlik, xayri baraka ma'budasiga aytilgan", "qoraquloq – qulog'i qattiq, gap kirmaydigan", "partlash – ikki xo'rozning bir-biri bilan urushishi, urganning changalida raqibning patimi, terisimi yulinib qolishi", "ersak – bu erni qo'yib unisiga, unisini qo'yib bunisiga tegib chiqadigan xotinlar", "ovush – es-hushdan ozish, ayrilish", "podosh – yo'ldosh", "Maxlas – qutulmoq", "Chag'at – cho'ponlarning narsalari birga joyga to'planib, ustiga egaliklarini bildiruvchi biror yopinchiq tashlangan uyum", "xo'r – tojikcha, yeguvchi,

ichuvchi”, “tappot – quyosh, kunning issig‘i urgani, elitgani”, “sirri – takasaltang, qo‘lini sovuq suvga urmaydigan”…

Yana asarlarda toponimlarning nomlanishi hamda nomlanish sabablari ham o‘quvchi uchun, o‘z tili va tarixiga bee’tibor bo‘lmagan inson uchun qimmatli ma’lumot sanaladi. Adibning “Otachiroq” to‘plamidagi katta=kichik asarlardan misol keltiramiz: “Joylarga nom berish qadimiy turkiy xalqlarda san’at darajasiga ko‘tarilgan. Chuqur jar oralab oqadigan katta suvni Tuyatortar deb atalishiga e’tibor bering. Bu tuyani ham tortib ketadigan, oqizadigan degani. Yoki Avliyoota, Jartepa, Turkariq, Turk su, Tikonlikmozor, Bo‘rijar, Oqtepa, Bo‘zsu, Qorasu, Oqtosh, Qatortol, Jarariq, Ilonlimozor, Arnasoy… Birinchisi shaxs nomi bilan bog‘liq, keyin gidrotoponim, etnotoponim, biotoponim”¹⁴.

Bundan tashqari adib asarlarida tarixiy, ilmiy, filologik faktlar ham asar qurilishiga mohirlik bilan qo‘shib ketilgan. Xususan, mana bu misollarga murojaat qilish mumkin: “Qirning labida ilinib turgan imorat Samarqandda qurilgan birinchi machit – Xujai Xizr edi”.

Adabiyyotning asosiy vazifasi yuqorida ham keltirganimizdek estetik ta’zir, tarbiya ekanligini hisobga olib adib asarlarining ham bizga, oilamizga manfaatli fikrlar keltirilganini ta’kidlamaslikning iloji yo‘q.

“Bog‘dagul” qissasida Ena farzandsizligi sabab ota uyiga qaytib ketmoqchi bo‘lib yo‘lga chiqqan kelinga tanbeh beradi: “Zaifa o‘z oti bilan zaifa. Ojiza o‘z oti bilan ojiza. Erning ko‘ngliga qaramagan xotinning ikki beti qora. Er hamki erday bo‘lsa”, “O‘g‘il tug‘aman, desang, mahsini yechma. Dushman oyoqqa qaraydi. Odamning ikkita dushmani bo‘lsa, bittasi sovuq. Sovuq oyoqqa yopishadi. Mahsiyam kelinlikning davlati. Uyim-joyim deydigan xotin ro‘mol o‘rashidan ma’lum. Sochi ko‘kragining o‘rtasiga tushgandan Jannat isi keladi. Bomdodni qo‘yma. Bomdodga ruxsat bergen egasi boshqa mushkullaringni ham oson qiladi”, “Ering senga qaraganda ko‘zlarining yumma. Ko‘zidan ko‘zingni olma. Yaxshi ko‘rishi kuchayadi. Erning betiga ixlos bilan bir qaragan bir oylik ro‘za tutganning savobiday bo‘ladi. Bu gaplarni Payg‘ambarimiz qizlari, Biyfotimaga aytganlar. Erning ko‘ziga qaragandan ulug‘lik yo‘q, betiga qaragandan suyuklik yo‘q”, “Yuvgan kirim yaxshi oqarsin, desang, uch qayta yuv. Uch suv ko‘rmagan kir yaxshi yuvilmagan mayitday yelkasi tirishib yotadi, hidiyam o‘ziga yoqmay”…

Biz bunda birgina qissa matniga murojaat qildik. Vaholanki, adibning barcha asarlari hikmat bo‘stonidir. Qissada Ena er-xotin o‘rtasidagi sovuqchilikni yo‘qotib, o‘chayotgan cho‘g‘ni alangalatib yuboradi. Shundan so‘ng qahramonlar xuddi yosh kelin-kuyovdek mehrli bo‘lib ketishadi va yakun bunday bo‘ladi: “Kelinchak kulganda ko‘chayam kuladi. Yosh bolalarga qo‘shilib sharaqlab, qiqirlab, ko‘zlaridan yoshlari oqib hech yerga sig‘maganda o‘zini tikka jarga tashlaydi. Ko‘z yoshini birov ko‘rmasin,

¹⁴ B. Qobil “Otachiroq” (“Otamozor” hikoyasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2021. – 44 b.

deya qayta-qayta yuvgan bo‘ladi. Quvonch hovuri bosilgandan keyin birov bilar, birov bilmas yana iziga qaytadi”.

Bunday o‘rinlarni o‘qigan o‘quvchi “Oila pedagogikasi” kitobidan parcha o‘qiyotgandek bo‘ladi, faqat ilmiy tilda emas, xalqchil, ko‘ngilga yaqin tilda, xuddi ayamiz, momomiz (buvi – B.D) qulog‘imizga quygandek.

So‘nggi o‘ylarimiz shuki, adib qalamga olgan maqsad, asar g‘oyasi Enaning tili bilan aytganda “Men hamisha derazadan, orqangizdan qarab turaman”, - deyayotgandek bo‘laveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – T.: Ma’naviyat, 2002. –29 b.
2. Shomaqsudov A. va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1983. – 57 b.
3. B. Qobul “Otachiroq” (“Otamozor” hikoyasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2021. – 314 b.
4. M. Anvarova, J. Jabbarov “Bahodir Qobulning “Ena shamol” qissasi asosida sheva izohli lug‘atini yaratish dasturi”, 2023.
5. B. Qobul “Enayo‘l” (“Enayo‘l” qissasidan). – T.: “Mashhur-Press”. 2018. – 45 b.
6. Toshpo‘latov Z.D. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. – Toshkent. 2006. – 19 b.
7. Феллер М. Структура произведения. – М.: Книга. 1981. – С.169.
8. Qahhor A. Adabiyot – ruhiyat mulki. T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 3 b.
9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 422 b.